

## GLOBAL KASBIY SOG‘LIQ VA XAVFSIZLIK KOALITSIYASI HAMKORLIGIDA SANOAT ISHLAB CHIQARISHDA IJTIMOIY- IQTISODIY SAMARADORLIGINI OSHIRISH ISTIQBOLLARI

**Karakulov Muzaffar Abduvaliyevich**

Menejment va zamonaviy texnologiyalar universiteti magistranti

Telefon: +998 99 083 63 45

m.karakulov@mail.ru

**Annotatsiya:** Global kasbiy sog‘liq va xavfsizlik koalitsiyasi hamkorligida sanoat ishlab chiqarishda ijtimoiy-iqtisodiy samaradorligini oshirish istiqbollari tahlil qilingan. Kasbiy sog‘liq va xavfsizlikni ta’minlash hamda uning oqibatida kelib chiqadigan xarajatlardan saqlanish bilan yuqori iqtisodiy o‘sishga erishishning ijtimoiy-iqtisodiy yechimlari o’rganilgan. Olib borilgan tadqiqotlar natijalari asosida mehnat muhofazasi jarayonlarini raqamlashtirishga oid tegishlicha takliflar va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

**Kalit so‘zlar:** samaradorlik, korxona, mehnat muhofazasi, shikastlanish, baxtsiz hodisa, hodim, salomatlik, kasb kasallikkleri.

Hozirgi kunda jahon YaIMning 33 foizi aynan qurilish, sanoat va ishlab chiqarishda yaratilmoqda. 2030 yilga kelib jami yaratilgan ish hajmi 65 foizga ortib (8 trln. AQSh dollari) umumiyligi aylanma 15,5 trln. AQSh dollarini tashkil etishi kutilmoqda<sup>1</sup>. 2024 yilda jahon sanoatida 780 million nafar ishchi-xodim band bo‘lib umumiyligi kuchining 7,9 foizini tashkil etmoqda<sup>2</sup>. Bevosita mehnat faoliyati bilan 2 mln. nafar xodim ish joylarida bevaqt hayotdan ko‘z yummoxda. Shuningdek, 160 million nafar xodim ish jarayonida turli xil kasb kasallikklariga chalingan<sup>3</sup>. MDH mamlakatlarida esa halokatli kasb kasallikkleri soni 11 mingdan ortiq holatni tashkil etgan. Kasbiy sog‘liq va xavfsizlik bilan bog‘liq vaziyatlar yiliga 65 ming nafar xodimning o‘limiga sabab bo‘lgan<sup>4</sup>. Tadqiqotchilar fikriga ko‘ra, dunyo bo‘yicha umumiyligi zarar yiliga jahon YaIMning o‘rtacha 4 foiz (1,25 trln. AQSh

<sup>1</sup> [http://www.globalconstruction2030.com/assets/press/2030/GC2030\\_Press\\_Release](http://www.globalconstruction2030.com/assets/press/2030/GC2030_Press_Release)

<sup>2</sup> <https://constructionblog.autodesk.com/construction-industry-statistics/>

<https://data.worldbank.org/indicator/SL.TLF.TOTL.IN>

<sup>3</sup> [https://www.ilo.org/global/about-the-ilo/newsroom/news/WCMS\\_007969/lang--en/index.htm](https://www.ilo.org/global/about-the-ilo/newsroom/news/WCMS_007969/lang--en/index.htm)

<sup>4</sup> [https://www.ilo.org/moscow/areas-of-work/occupational-safety-and-health/WCMS\\_249278/lang--en/index.htm](https://www.ilo.org/moscow/areas-of-work/occupational-safety-and-health/WCMS_249278/lang--en/index.htm)

dollari)yo‘qotilishiga olib kelmoqda. Shu jumladan, qurilish sanoatida yiliga 337 million baxtsiz hodisalar yuz berib umumiy zarar 890 mln. AQSh dollarini tashkil etgan<sup>5</sup>.

Bugungi kunda jahon miqyosida kasbiy sog‘liq va xavfsizlikni ta’minlash tizimining xalqaro integratsiyalashuvini tubdan takomillashtirish maqsadida o‘tish davri iqtisodiyoti va rivojlanayotgan mamlakatlar sanoat ishlab chiqarishida xavfsiz ish muhiti va madaniyatini shakllantirish asosiy vazifalardan hisoblanadi. Shuningdek, yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan xavf-xatarlarni oldini olish va aniqlashda raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish, ishchilarning mushak taranglashuvi va ruhiy zo‘riqish muammolarini hal qilish natijasida inson kapitalini rivojlantirishga oid xalqaro ilmiy tadqiqotlar muhim islohotlardan biriga aylangan[8].

O‘zbekistonda ham barcha soha tashkilotlarda baxtsiz hodisalar sonining ortib borishi nafaqat ish beruvchiga iqtisodiy zarar keltirishi balki, ishchilar hayotining yuqori xavf ostida qolishida ijtimoiy yo‘qotishlar hatto, hayotdan bevaqt ko‘z yumish holatlari muntazam uchrab turibdi. Shunga ko‘ra, mehnat muhofaza jarayonlarida xalqaro standartlarni joriy etish va baxtsiz hodisalarini oldini olishda raqamli tehnologiyalarni qo‘llash muhim ahamiyat kasb etadi. Shu boisdan Respublikamizdagi barcha sohaviy tashkilotlar va sanoat ishlab chiqarish korxonalarida mehnat muhofazasi jarayonlarini samarali boshqarishda raqamli texnologiyalardan foydalanish dolzarb hisoblanadi[7].

Sanoat ishlab chiqarishda mehnat muhofazasi va uni xavfsizligini ta’minlash borasida ilmiy-tadqiqotlar olib borgan xorijiy iqtisodchi olimlardan K. Sulaymon, P Xages, E. Ferett, D. Valterz, S. Williams, N. Alkanam, M. Kxeni, K. Koji, J. Serbitzer, X. Vua, K. Liu, L. Zang, J. Skebnevskiy, Yu. Vang kabilarning izlanishlari diqqatga sazovor<sup>6</sup>.

<sup>5</sup> Bilal Kaassis and Adel Badri. Development of a Preliminary Model for Evaluating Organizational Health and Safety in small and medium-sized enterprises. Safety journal February 1.2023.

<sup>6</sup> Khairuddin Sulaiman. A study of building Procurement Process as a potential tool to Enhance safety practice In the construction industry Malaysia, 2008.; Phil Hughes, Ed Ferrett. Introduction to Health and Safety in Construction. Second edition, Oxford, UK, 2008.; Stephen Williams. Health and safety in construction, London, UK, 2006.; Nongiba Alkanam Kheni. Impact of health and safety management on safety performance of small and medium-sized construction businesses in Ghana. Loughborough University, London, UK, 2008.; J. Serbitzer, X. Wua, Q.Liu, L. Zhang, J. Skibniewski, Y. Wang. Prospective safety performance evaluation on construction sites. Accident Analysis and Prevention, 2015.; Occupational health and safety an annotated bibliography of research and related literature (1998 - 2003).



Shunigdek, Buyuk Britaniya, AQSh, Yevropa Ittifoqi, Kanada, Yaponiya, Xitoy, Rossiya, va Turkiya kabi iqtisodiyoti ilg‘or mamlakatlar tajribalari hamda bir qator xalqaro tashkilotlar amaliyoti jumladan, BMTning Umumjahon inson huquqlari dekloratsiyasi, BMTning Yangi ming yillik taraqqiyot dasturi (UN New Millennium Goal), XMT, Xalqaro mehnat konferensiyasi, BSST, Xalqaro ergonomika assotsiatsiyasi, BMT sanoatni rivojlantirish tashkiloti, tashkiloti, Global kasbiy sog‘liq va xavfsizlik Koalitsiyasi (The Global Coalition for Safety and Health at Work), Kasbiy sog‘liq bo‘yicha xalqaro komissiya (International Commision on Occupational Health), 2030 yillar uchun qurilish sanoatining global bashoratlari (A global forecast for the construction industry to 2030), Inson resurslari yillik hisoboti (Human Resources Annual Report), Inson resurslari hisoboti (Human Resources Report), Global sog‘liq 50/50 hisoboti (The Global Health 50/50 Report), Jahon ish bilan ta’minalash ijtimoiy qarashlar trendi (World Employment Social Outlook Trends), Jahon sog‘liq statistikasi (World health statistics), Scopus va Sciencedirect platformasidagi bir qattor ilmiy maqolalar, hamda bir qator global indekslar tadqiq etilgan.

Shu bilan birga, MDH mamlakatlari olimlaridan V.N.Bekasova, S.I. Borovik, N.V. Glotova, V.G. Davlyatshin, V.G. Zelenkin, L.M. Kiseleva, I.S. Okrainskaya, I.P. Palatinskaya, G.I.Belyakov, A.V. Xashkovskiy, N.A. Xusainova, V.V. Gafner, O.N. Kulikov, Ye.I. Rolin, N.M. Fateeva, N.N. Malyarchuk, T.V. Sazanova, M.V.Plotnikova, T.A. Gluxix, V.I. Grens, S.N. Glazunovalarning ilmiy ishlari atroflicha o‘rganilgan<sup>7</sup>.

Mamlakatimiz olimlarining tadqiqotlarida ham iqtisodiyot tarmoqlarida mehnat xavfsizligi ta’sirining ayrim jihatlari o‘rganilgan. Xususan, Q.Abdurahmonov, S.G’ulomov, B.Umurzakov, Sh.Qurbaniyazov, D.Baxromova, A.Igamberdiev, Sh.Xolmo‘minov, N.Aimbetov, T.Jiemurotov, O.Abdurahmonov, A.Parmonov, A.Igamberdiev, G.Dadaev, G.Abdurahmonova, M.Qodirov,

<sup>7</sup> Бекасова В.Н., Боровик С.И., Глотова Н.В., Давлятшин В.Г., Зеленкин В.Г., Киселева Л.М., Окраинская И.С., Палатинская И.П., Хашковский А.В. Безопасность жизнедеятельности В дипломных проектах. Окраинской И.С., Челябинск, ЮУрГУ, 2007.; Феоктистова О.Г., Феоктистова Т.Г., Мерзликин И.Н. Безопасность жизнедеятельности Организация охраны труда. – М.: Московский государственный технический университет гражданской авиации, 2015.; Хусаинова Н.А., Гафнер В.В. Мониторинг становления профессиональной компетентности учителя безопасности жизнедеятельности. Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата педагогических наук Екатеринбург – 2005.; Куликов О.Н., Ролин Е.И., Безопасность жизнедеятельности в строительстве, Москва, Академия, 2009.; Фатеева Н.М., Малярчук Н.Н., Сазанова Т.В., Плотникова М.В., Глуших Т.А., Гренц В.И., Глазунова С.Н. Безопасность жизнедеятельности, Тюмень, 2012.

I.Nigmatov, S.G‘oyibnazarov, M.Tojiev, D.Xudoev, Q.O‘lmasov, O.Qudratov, S.Tairov, Z.Gaibnazarova, R.Saloxo‘jaev, Sh.Akramova va A.Magrupovlarning ilmiy ishlari shular jumlasidandir<sup>8</sup>.

Ammo, sanoat ishlab chiqarish korxonalarida mehnat muhofazasi jarayonlarini samarali tashkil qilish va boshqarishda raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar yetarli emasligiga amin bo‘lamiz. Shu jihatdan sanoat ishlab chiqarish korxonalarida mehnat muhofazasi jarayonlarini samarali tashkil etishda raqamli texnologiyalardan foydalanish bo‘yicha tadqiqot olib borish mazkur mavzuning dolzarbligini ko‘rsatadi[6].

Mamlakatimiz ishlab chiqarish sanoatida mehnat muhofazasi va xavfsizlikni birinchi o‘ringa qo‘yish natijasida xavfsiz ish muhitini barpo etish zarur. Bu esa, aynan ishchilar salomatligi va xavfsizlik munosabatlarini diversifikatsiyalash hamda yangicha rivojlanish bosqichiga olib chiqish bilan ahamiyatlidir.

Mamlakatimiz ishlab chiqarish sanoatida ijtimoiy-iqtisodiy samaradorlikni oshirishda kasbiy sog‘liq va xavfsizlikni ta’minlashning konseptual asoslarini takomillashtirish masalalari bir qator innovatsiyalarga muhtoj. Sohada raqobatbardoshlikni oshirish yo‘lida ta’lim, fan va amaliyotning (Education, Science and Business) o‘zaro integratsiyalashuvi bo‘yicha xorijiy amaliyot muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Xorijiy mamlakatlar tajribasi, xalqaro tashkilotlar amaliyoti va yutuqlaridan samarali foydalangan holda mamlakatimiz qurilish sanoatida inson hayotini saqlab qolish, bilimlarini oshirish, turli xatarlardan himoya qilish va mehnat unumдорligini oshirishda yagona ish tizimini tashkil etish ahamiyatlidir. Shu nuqtai-nazardan qurilish sanoatida mehnat muhofazasi ning konvension mazmuni va yangi talqindagi izohi, zamonaviy tushuntirishga oid yondashuvlari va ularga aniqliklar kiritish yoki

<sup>8</sup> Фойипназаров С.Б. Кичик бизнес ва хусусий тадбиркорликда меҳнатни муҳофаза килишнинг илмий асосларини такомиллаштириш, Тошкент, 2018.; Курбаниязов Ш.К. Курилиш материаллари саноатида корпоратив бошқарувнинг ташкилий-иктисодий механизминин жорий этиш самарадорлиги. Иқт. фан. фалсафа доктори (PhD). илм. дар. олиш учун дисс. – Т.: ТДИУ, 2018. – 126 б.; Баҳромова Д.Б. Аҳолини ижтимоий ҳимоялашнинг асосий ўйналишларини иқтисодий-статистик таҳлили. Иқт. фан. фалсафа доктори (PhD) илм. дар. олиш учун дисс.. – Т.: ТДИУ, 2018. – 151 б.; Аимбетов Н.Қ. Мураккаб экологик шароитда иқтисодий ва ижтимоий жараёнларни моделлаштириш. Иқт. фан. доктори илм. дар. олиш учун дисс.. – Т.: ТДИУ, 2000. – 278 б.; Жилемуротов Т.П. Корхона бошқаруви жараёнида ахборот таъминотини жорий этишни такомиллаштириш. Иқт. фан. ном. илм. дар. олиш учун автореферат – Т.: ТДИУ, 2010. – 26 б.; Quvondiqova D.E., Jumayeva N.Sh. Hayot faoliyati xavfsizligi, Navoiy 2013.; Пармонов А., Игамбердиев А., Дадаев Г., Кодиров М. Hayot Faoliyati Xavfsizligi, Nizomiy nomidagi toshkent davlat pedagogika universiteti, Toshkent 2007.; Nigmatov I., Tojiyev M. Favqulodda vaziyatlar va fuqaro muhofazasi, Toshkent, Iqtisod-Moliya, 2011.

kamchiliklarni to‘ldirish bilan konseptual asoslarini tubdan isloh qilish mumkin. Buning uchun uch asosiy sektordagi mavjud kamchiliklarni aniqlab, ularni o‘zaro uyg‘unlashuviga ko‘makalashuvchi imkoniyatlarni aniqlash lozim[4].

Ilmiy izlanishlar olib borishning globallashuv jarayonlarida tadqiqotlarning asosiy iboralarini ingliz tilidagi halqaro qabul qilingan shakllarini tizimlash lozim. Zero, mamlakatimiz qurilish sonatida ishchilarga qulay mehnat sharoitlarini barpo etish, ularning xavfsizligini ta’minlashda “Mehnat muhofazasi”, “Mehnatni muhofaza qilish”, “Hayot xavfsizligi”, “Fuqaro muhofazasi”, “Texnika xavfsizligi”, “Yong‘in xavfsizligi”, “Hayot faoliyati xavfsizligi”, “Sanoat xavfsizligi”, “Hayot faoliyat xavfsizligi”, “Mehnat muhofazasi va ishlab chiqarish xavfsizligi”, “Mehnat sharoitlarini yaxshilash va mehnatni muhofaza qilish”, “Fuqarolar himoyasi va mehnat muhofazasi”, “Mehnat muhofazasi va xavfsizlik”, “Fuqaro muhofazasi va mehnatni muhofaza qilish”, “Xavfsizlik texnikasi”, “Elektr xavfsizligi”, “Hayot faoliyati xavfsizligi va mehnat gigienasi” kabi turli shakldagi tushunchalar qo‘llanilib kelinmoqda.

Mamlakatimiz ilm-fan tizimi yuqorida keltirilgan barcha so‘z birikmalarini kasbiy sog‘liq va xavfsizlik (Health and safety) tushunchasiga almashtirgan holda ilmiy tadqiqotlarni olib borish quyidagi innovatsion yondashuvlarni o‘z ichiga olishi lozim deb hisoblaymiz:

1. An’anaviy ilmiy tadqiqot usullari va yo‘nalishlaridan xalqaro reyting agentliklar amaliyotiga o‘tish.

- Quantitative method;
- Harvard style;
- IEEE Referencing Style.

2. Xorijiy tillarni jumladan, ingliz tili va kompyuter texnologiyalarni mukammal o‘zlashtirgan yosh olim va ilmiy tadqiqotchilar faoliyatini rivojlantirish. Masalan, Scopus bazasida bir yilda o‘rtacha chop etilayotgan ilmiy maqolalar hajmiga e’tibor beradigan bo‘lsak, holat quyidagicha:

- Ingliz tilida-40,255000 ta
- Nemis tilida-1,616000 ta
- Rus tilida -901,516 ta144

3. Xalqaro ilmiy qarashlar va nazariyalar bilan hozirgi kun mamlakatimiz qurilish sanoati amaliyoti o‘rtasidagi tafovutning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatini baholash[1].

4. Inson salomatligi, qulay mehnat sharoitlari, xavfsiz ish muhiti va madaniyati, qurilish sanoati ijtimoiy-iqtisodiy samaradorligiga oid muhim bog‘liq va mustaqil o‘zgaruvchilarni aniqlash.

*Iqtisodiy zararlar indeksi:*

- davolanish xarajatlari (ming. so‘m);
- erta nafaqaga chiqqan ishchilar uchun to‘lovlar (ming. so‘m);
- o‘lim xarajatlari (ming. so‘m);
- har bir jarohat uchun yo‘qotilgan ish soatlari oqibati zarar miqdori (ming. so‘m);
- har bir jarohat uchun yo‘qotilgan ish kunlari oqibati zarar miqdori (ming. so‘m);
- yo‘qotilgan ish haqi miqdori (ming. so‘m);
- atrof-muhitga yetkazilgan zarar miqdori (ming. so‘m);
- sug‘urta to‘lovlar miqdori (ming. so‘m);
- ishchi-xodimlarga to‘lanadigan kompensatsiyalar miqdori(ming. so‘m);
- baxtsiz hodisalar tufayli ko‘rilgan jami zarar miqdori ( ming. so‘m).

Ammo, xalqaro amaliyot ko‘proq Buyuk Britaniya va uning ittifoqchilari ilm-fan yutuqlari asosida shakllangan bo‘lib, dunyo mintaqalarida yagona ta’lim tizimi va amaliyoti bilan o‘zaro muvofiqlashgan holda e’tirofga molik yuksak natijalar ilmiy maqolalar va nufuzli universitetlar darsliklarida o‘z aksini topgan. Demak, mazkur natijalar orqali hozirgi kun mamlakatimiz oliy ta’lim tizimidagi milliy harakatlarni qanchalik ulkan darajada isloh qilish lozimligini anglash qiyin emas. Jadvalga ko‘ra mutlaqo yangicha tadqiqot va ta’lim yo‘nalishlari asosida dunyo mintaqalarida raqobatbardosh kadrlar tayyorlashda ustunlikka ega bo‘layotgan universitetar amaliyoti biz uchun izohsiz qoladi albatta[5].

Shu bilan birga qisqa muddatli o‘quv kurslari va treninglar, xalqaro diplom va sertifikatlar joriy etish masalalari dolzarbligicha turibdi. 36 va 120 soatga mo‘ljallangan qisqa o‘quv kurslarini bitirib xalqaro darajada mehnatni muhofaza qilish mutaxassisligi asosida ishslash imkonini beruvchi sertifikatar va diplomlar albatta shu sohada yangi ish o‘rinlarini barpo etilishi hamda kasb egalarini yagona ibora ostida umumiy birlashishga erishishni ta’minlaydi.

Shu sababdan bugungi kuchli raqobat sharoitida har bir tashkilotda o‘lim xavfi yuqori turuvchi ishlab chiqarish korxonalarida baxtsiz hodisalarni kamaytirish orqali iqtisodiy samaradorlikni yanada oshirish mumkinligi va zarurligidan kelib chiqib, 2



muhim shart bajarilishi – *kasbiy sog‘liq va xavfsizlikni ta’minlash* hamda *uning oqibatida kelib chiqadigan xarajatlardan saqlanish* bilan yuqori iqtisodiy o‘sish kalitiga ega bo‘lishni asosiy maqsadga aylantirmoq lozim.

1-jadval

<b>№</b>	<b>Mamlakat</b>	<b>Identifikatsiya tartibi</b>	<b>Identification method</b>
1	AQSh	Ijtimoiy xavsizlik raqami	Social Security Number
2	Belgiya	Milliy qaydnomalar raqami	National Register Number
3	Buyuk Britaniya	Milliy sug‘urta raqami	National Insurance Number
4	Irlandiya	Shaxsiy davlat xizmatlari raqami	Personal Public Service Number
5	Kanada	Ijtimoiy sug‘urta raqami	Social Insurance Number
6	Koreya Respublikasi	Rezidentlikni qayd etish raqami	Resident's Registration Number
7	Qozog‘iston	Yagona identifikatsiya raqami	Individual Identification Number
8	Rossiya	Yagona identifikatsiya raqami	Individual Identification Number
9	Singapur	Shaxsni qayd etish milliy kartasi	National Registration Identity Card
10	Turkiya	Identifikatsiya raqami	Identification Number
11	Ukraina	Yagona identifikatsiya raqami	Individual Identification Number
12	Finlandiya	Shaxsni aniqlash kodi	Personal Identity Code
13	Fransiya	Ijtimoiy sug‘urta raqami	Social Insurance Number
14	Xitoy	Identifikatsiya kartasi	ID card
15	Hindiston	Yagona identifikatsiya raqami	Unique Identification Authority

16	Shveysiya	Shaxsni aniqlash raqami	Personal Identity Number
17	Yaponiya	Milliy identifikatsiya raqami	National Identification Number

Xorijiy mamlakatlarda ishchilarning ijtimoiy xavfsizlik va himoyalash milliy tizimlarini o‘rgangan holda milliy ijtimoiy identifikatsiya raqamini joriy etish zarur.

Hozirgi kun amalda bo‘lgan OHSAS 18001:2007 kasbiy sog‘liq va xavfsizlik standarti uch tomonlama integratsiyalashuvda korxona-tashkilotlar faoliyati bir tomonda va xonadon-xovlilarda qurilish sanoati faoliyati bilan shug‘ullanayotgan jismoniy shaxslarning sog‘lig‘ini saqlash va xavfsizligini ta’minlash ikkinchi tomonda turgani yalpi muammolarni hal qilishda ojizlik qilmoqda.

Ishlab chiqarish korxona va tashkilotlarida mehnat muhofazasi asoslari raqamlashtirishni isloh qilish orqali raqobatbardoshlikni oshirishda quyidagilarga e’tibor qaratish lozim:

- “Sanoatda kasbiy sog‘liq va xavfsizlik” tushunchasini joriy etish;
- “Sanoatda kasbiy sog‘liq va xavfsizlikni boshqarish” tushunchasini joriy etish;
  - “Xavfsizlik birinchi o‘rinda” deb nomlanuvchi milliy harakatni joriy etish;
  - “Sariq chiziq bu-xavf” deb nomlanuvchi milliy shiorni joriy etish;
  - ishchilarga doimiy ravishda ish joylaridagi xavf-xatarlarning barcha mavjud shakllari haqida to‘liq ma’lumot berib borish;
  - mehnat muhofazasida kasbiy sog‘liqni saqlash va xavfsizlikni ta’minlash ajralmas tushuncha sifatida qabul qilish;
  - ish jarayonida uchraydigan risklarning barcha shaklarini baholash va ularni oldini olishga xalqaro amaliyot tizimini joriy etish;
  - xavfga kutilmaganda chalinish yoki sodir etish hatto odam tanlamasligi oqibatida baxtsiz hodisa qayd etgan inson aynan, o‘zi bo‘lishi mumkinligini doimo yodda tutish;
  - bilimsizlik va e’tiborsizlikni bartaraf etib e’lon, yo‘riqnomalar, belgi, buyruq va tavsiyalarga doimo amal qilib qulay mehnat sharoitida xotirjam ishslash;
  - ish jarayonida o‘zi va boshqa ishchilar uchun xavfli hudud yoki ish muhitini tuzoq sifatida qurishning oldini olish;

- sanitariya va gigiena qoidalariga past nazarda qaramasdan professional kasalliklarga uchrashdan muntazam himoyalanish;
- sodir bo‘layotgan baxtsiz hodisa va qayd etilayotgan o‘limdan har bir ishchi jabrlanayotgan shaxsnинг o‘rnida bo‘lishi mumkinligidan saboq olib korporativ javobgarlikni keskin oshirish;
- trening va o‘quv kurslarida faollik bilan ishtirok etish shuningdek, natijalar qoniqarsiz bo‘lsa, takroriy o‘qishdan bosh tortmaslik[3].

XMT standartlariga muvofiqlashtirilgan holda milliy tizimning konseptual asoslarini xalqaro amaliyot va ilmiy-texnika tarqqiyoti bilan uyg‘unlikda bog‘lash mumkin. Avvalambor, milliy qonunchilik tizimi, korxonalar ish jarayonlaridagi xavfsizlik tizimi va ularga qo‘yiladigan talablar keng doiradagi hamkorlik murojaatlari natijasida yangicha tus olishi jahon amaliyotida allaqachon o‘z isbotini topgan.

Xalqaro ko‘rgazmalar va amaliy tadbirlar misolida agar o‘rganadigan bo‘lsak, unda mahalliy ishchi-xodimlarimizning ishtirok etishi kun tartibidagi dolzarb masalalarning mohiyati, erishilgan yangi natijalar va kelajak istiqboldagi rejalarini amalga oshirish yo‘l xaritalarini tezda anglab olish imkoniyatlarini beruvchi yuksak yutuqlarimiz bo‘lishi mumkin.

Konsepsiyaning 7 ta oltin qoidasini chuqur o‘rgangan holda mamlakatimiz sanoat korxona va tashkilotlarida “*Sog‘liq va xavfsizlik xizmati dasturi*” ishlab chiqildi. Dastur 11 qismdan iborat bo‘lib, ish jarayonida ishchi-xodimlar sog‘liq va xavfsizlik munosabatlarining ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatini to‘liq qamrab olgan (3.2.1-ilova). Unga ko‘ra:

- 1- qism. *Ish muhitini baholash*
- 2-qism. *Xavf-xatar va tahdidlar*
- 3-qism. *Ishchilar sog‘lig‘i va xavfsizligiga investitsiya sarflash*
- 4-qism. *Samaradorlikka to‘sqinlik qiluvchi omillar*
- 5-qism. *Qurilish materiallarini ishlab chiqaruvchi jarayonlar*
- 6-qism. *Qurilish jarayonlari*
- 7-qism. *Boshqaruv tizimi*
- 8-qism. *Xalqaro hamkorlik va integratsiyalashuv*
- 9-qism. *Zararlar bo‘yicha hisob-kitoblar yuritish*
- 10-qism. *Samaradorlik*
- 11-qism. *Kutilayotgan natijalar.*

Ushbu dastur xalqaro amaliyotga mos ravishda ishlab chiqilib o‘z ichiga qator ishlanmalarни qamrab olgan. Bu esa, “Vision zero” Konsepsiysi talablarini mamlakatimiz sanoat korxona va tashkilotlar amaliyotiga qo‘llash orqali ijtimoiy-iqtisodiy samaradorlikni oshirish uchun umumiyl imkoniyatlarini kengaytiradi. Bu esa, o‘z-o‘zidan mamlakatimiz qurilish sanoatida inson kapitalini rivojlantirishga yangi yo‘lak ochadi[2].

*Mehnat muhofazasi jarayonlarini raqamlashtirishga oid quyidagi takliflarni ilgari surish mumkin:*

- ishchilarni ilk xavfsizlik talablari bilan tanishtirish;
- ishchi-xodimlarni sog‘lig‘i, bilimi, tajribasi, malakasi va toifasiga qarab mehnatga yollash;
- ishchi-xodimlar ijtimoiy sug‘urta raqamini taqdim etgandagina ish joyiga kiritish;
- ishchi-xodimlar xavfsiz ish faoliyatini olib borish testidan o‘tgan holatda beriladigan “maxsus ruxsatnomasi” (Card) taqdim etgan holatda ish hududiga kirishga ruxsat etish;
- ishchilarga istalgan oddiy ko‘ringan xavfli hodisa sodir bo‘lsa-da, u haqda rahbariyatga xabar berish majburiyatini yuklash.

Ishlab chiqarish ijtimoiy-iqtisodiy samaradorligini oshirishda mehnatni muhofaza qilish va xavfsizlikni ta’minlash bo‘yicha quyidagi jiddiy muammolar ahamiyatli hisoblanadi:

- Mazkur sohaga oid me’yorlar va talablarning global kasbiy sog‘liq va xavfsizlik Koalitsiyasi amaliyotiga mos kelmasligi;
- Ish jarayonida kasbiy sog‘liq va xavfsizlik xizmati uchun moliyaviy ajratmalarning qisqartirilishi yoki taqsimot rejasiga umuman kiritilmasligi;
- Mehnat muhofazasi inspektorlarining zamonaviy bilim va ko‘nikmalari xalqaro amaliyotga mos kelmasligi;
- Ish jarayonida “Risk analizi”ni o‘tkazmasdan ishchilarga ish boshlashga ruxsat berish;
- Ishchilarni majud xavf-xatarlardan muntazam ravishda ogohlantirish ularni yetarli darajada ma’lumot olishlari bo‘yicha turli shakldagi xavfsizlik belgilarining mavjud emasligi;
- Jarohatlarni nol darajagacha pasaytirish bo‘yicha chora-tadbirlar ishlab chiqilmagan;

-Sanitariya va gigiena xizmatini professional darajada tashkil etish yuzasidan ishchilar bilimini oshirish va ijtimoiy munosabatlari chegarasining buzilishi;

-Ish joylarida raqobatbardoshlik va inklyuziv rivojlanishni ta'minlashga qaratilgan sog'liq va xavfsizlik dasturining mavjud emasligi;

-Xorijiy tajribalar va hozirgi kun xalqaro amaliyot asosida ijtimoiy-iqtisodiy samaradorlikni oshirish yuzasidan bilim va ko'nikmalarini takomillashtirish bo'yicha o'quv qo'llanamalarining yetarli emasligi;

-Ish joylarida ishchilar o'rtasida ijtimoiy munosabatlarining keskin tus olib borishi.

-Ishchilar sog'liq holatini muntazam monitoring qilib borish, ular bilim va ko'nikmalarini rivojlantirish, ustoz-shogird munosabatlarini yaxshilashga investitsiya hajmining yetarli darajada emasligi sabab bo'lmoqda.

### **Xulosa**

Xodimlarning ish joyidagi xavfsizligini ta'minlashda mehnat muhofazasi va mehnat xavfsizligini ta'minlash bo'yicha olib borilgan ishlar natijasida quyidagi xulosalarga kelindi:

Sanoat ishlab chiqarishda mehnat muhofazasi va mehnat xavfsizligini ta'minlash ish joylarida ishchi-xodimlarning turli kasalliklarga chalinishini tartibga solish, baxtsiz hodisalarini nol darajagacha pasaytirish, favqulodda xatarli vaziyatlar yaratmaslik natijasida xavfsiz ish muhiti va madaniyatini rivojlantirib resurlardan takror foydalanishning oldini olish bo'yicha ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarni targ'ib qiladi.

Mehnat muhofazasi va mehnat xavfsizligi munosabatlari qator iqtisodchi olimlar, xorijiy tajribalar va hozirgi kun xalqaro amaliyotni o'rgangan holda quyidagi mualliflik ta'rifi ishlab chiqildi: "mehnat muhofazasi va xavfsizlik - bu ish joylarida mavjud xavfning yuqori darajada ahamiyatligini bildiruvchi sariq qalin chiziqlar chizish orqali ishchi-xodimlarni xatarlardan muntazam ogohlantirish, turli darajadagi professional kasalliklar va baxtsiz hodisalarining oldini olish natijasida umumiy ijtimoiy-iqtisodiy samaradorlikni ta'minlash tizimidir."

"2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlanirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida" ishchi-xodimlarning ijtimoiy munosabatlarini ishchi-xodimlarning ijtimoiy munosabatlarini takomillashtirish masalalari dolzarb vazifalar qatoridan o'rin olgan bo'lib, qurilish sanoatida

raqobatbardoshlikni oshirish, salomatlikni ta'minlash, qulay mehnat sharoitlarini yaratish, ishchilar salomatligini ta'milash, turli xavf-xatarlardan xoli ish muhitlarini tashkil etish, ishchilar malakasini oshirish va ularni o'quv-trening kurslarida qayta o'qitish borasida xalqaro hamkorlikni kengaytirish masalalari ilgari surilgan.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 27 areldagi "Mehnatni muhofaza qilish sog'asidagi xizmatlar bozorini yanada rivojlantirish to'g'risida"gi qarori // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017 yil, 17-soni.
2. "Ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalarini va xodimlar salomatligin boshqa xil zararlanishini tekshirish va hisobga olish to'g'risida"gi nizom // O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1997 yil 6 iyundagi "Ishlab chiqarishdai baxtsiz hodisalarini va xodimlar salomatligin boshqa xil zararlanishini tekshirish va hisobga olish to'g'risida nizom to'g'risida"gi qarori // <http://lex.uz>.
3. A.Zikriyoev. Monorgafiya. Inson kapitalini rivojlantirishda kasbiy sog'liq va mehnat xavfsizligini ta'minlash [Matn] «ZUXRA BARAKA BIZNES», 2022-205 bet.
4. Bilal Kaassis and Adel Badri. Development of a Preliminary Model for Evaluating Organizational Health and Safety in small and medium-sized enterprises. Safety journal February 1, 2018.
5. Xusainova N.A., Gafner V.V. Мониторинг становления профессиональной компетентности учителя безопасности жизнедеятельности. Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата педагогических наук Екатеринбург – 2005.; Куликов О.Н., Ролин Е.И, Безопасность жизнедеятельности в строительстве, Москва, Академия, 2009.
6. G'oyipnazarov S.B. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikda mehnatni muhofaza qilishning ilmiy asoslarini takomillashtirish. Iqt. fan. falsafa doktori (PhD). ilm. dar. olish uchun diss.. – T.: TDIU, 2018. Toshkent, 2018.
7. <http://www.gov.uz> (O'zbekiston Respublikasi Hukumati).
8. <http://www.stat.uz> (O'zbekiston Respublikasi Davlat Statistika qo'mitasi).